

Ona yurting - oltin beshiging

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiga boshlagan

2006-yil 20-26 – noyabr N:47 (66588)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI



Birinchi bo'lim ASOSIY PRINSIPLAR

1-bob

DAVLAT SUVERENITETI

1-modda. O'zbekiston – Suveren demokratik respublika. Davlatning «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'noni anglatadi.

2-modda. Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdar shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.

3-modda. O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir.

4-modda. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va etatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

5-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzları – bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega.

6-modda. O'zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent.

GULNOZA YAPONIYADA

Yo'q, Gulnoza emas, aniqrog'i, uning chizgan rasmlari Yaponiyada namoyish etildi. To'g'ri, har bir bolaning o'ziga yarasha qiziqishi, xohish-istagi bo'ladi.

Men ham tasviriy san'atga juda qiziqqanim bois, 2003-yildan buyon Respublika o'quvchilar saroyi qoshidagi rassomchilik to'garagiga qatnayman. O'qituvchimiz Ahmad aka tasviriy san'atning nozik sirlarini o'rgatadilar. Hozirda turli ko'rgazmalarda qatnashib, faxrli o'rnlarni egallab kelayapmiz. Yaqinda Yaponiyada yosh musavvirlar ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. 4ta davlat vakillari ishtirokida bo'lib o'tgan bu ko'rik-tanlovgaga 15 nafar o'quvchining ishlari jo'natildi. Barchamiz u yerdan keladigan javobni intazorlik bilan kutdik. Nihoyat, ustozimiz Ahmad aka ko'rik-tanlovdagi 243-maktab o'quvchisi Gulnoza Abdurahimova 3-o'rinni egallaganini aytdilar. Dugonamizning bu g'alabasidan biz ham faxlandik. Bundan buyon yana turli ko'rgazmalarda qatnashib, yuqori o'rnlarga sazovor bo'lishga harakat qilamiz.



Nigora MIRZAYEVA,
Sergeli tibbiyot kollejining I bosqich talabasi.

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY NIJOS HALQALARI

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'limgan xalqaro xayriya jamg'armasi.



Hammaga kulib turgan bu qiz kim bo'ldi?
Buncha go'zal ko'ylaging, desak jim bo'ldi.

-Ko'ylagimdan emas, Siz baxtimdan aytинг,
O'qi, ulg'ay, shodlan deng, taxting naqd payting.

Samiraga biz uzoq umr tiladik,
Qadring baland bo'lsin, deb yoqut, tilladek!

Men katta bo'lsam...

Bugungi kun bolajoni zimmasiga juda ko'p vazifalar yuklatilgan. Kelajakda o'z o'rnnini topishi, biror kasb egasi bo'lishi uchun bilimli, hunarli va sog'lom bo'lishi shart. Turli to'garaklarda, hunar o'rganayotgan, sport bilan shug'ul-lanayotgan qorako'zlar kasb tanlashda ham go'daklikdan bosh qotirishyapti. Keling, e'tiboringizni Ijtimoiy yo'nalishdagi Respublika maxsus gimnaziyasining bir guruh 4-sinf o'quvchilarining orzulariga qarataylik:

Nig'mat IZZATULLAYEV:

FERMER BO'LMOQCHIMAN

Dadam fermerlar. Men ham ularning ishlariiga ko'maklashib turaman. Juda ko'p qoramollarimiz bor. Bir kunda 250 litr sut olib, davlatga topshiramiz. Dadam o'zlar ham sut mahsulotini qayta ishlab chiqaruvi «minizavod» ochish niyatidalar. Ularning ishlari juda mashaqqatlari. Tong oqarmasdan fermaga oshiqadilar. Yem-xashakni o'z vaqtida yetkazib berish, mol-holning salomatligini kuzatish – bariga ulguradilar. Shunday bo'lsa ham men fermerlikka qiziqaman. Dadamning kasblarini davom ettirmoqchiman.

Islom AHMEDOV:

KOMPYUTERGA QIZIQAMAN

Men kompyuterda ishlashni yoqtiraman. Juda ko'p dasturlarni bilaman. Yaponiyada yaratilayotgan yangi-yangi dasturlarni tezroq o'rganish maqsadida xorijiy tillarni ham o'rganyapman. Katta bo'lsam, kompyuter dasturchisi bo'lmoqchiman.

Elyor YUSUFZODA:

PROKUROR BO'LAMAN

Huquq fani yuqori sinfdagi o'tilishini bilib, biroz xafa bo'ldim. Qani endi menga o'xshagan qiziquvchilar uchun alohida huquqshunoslar sinfi tashkil etilsa-yu, bir joyga jamlanib huquq bo'yicha bilim olsak. Oynayi jahon orqali namoyish etiladigan «Qilni qirq yorib» ko'rsatuvini miriqib tomsha qilaman. Undagi jumboqli masalalarni mustaqil yechaman. Mening nuqtai nazaram to'g'ri chiqqanini ko'rgan buva va buvijonim «prokuror bolam» deya erkalatishadi.



Dinora TO'YCHIYEVA:

SHIFOKOR SHIFO ULASHTAR

Mening tomonog'iim va qulog'im tez-tez bezovta qilib turgani bois, yilda ikki marta shifokor ko'rigidan o'taman. Uning mo'jizakor qo'llari va malhammlari yordamida dardimga davo topaman. Shuning uchun ham shifokor bo'lishni orzu qilaman. Agar shifokor bo'lsam, yig'lab kelgan bolalarning kulib ketganini ko'rib quvonib yurardim.



Mahliyo ABDUNAZAROVA:

ENG YAXSHISI – O'QITUVCHILIK

Menga o'qituvchilik kasbi yoqadi. O'zing bilgan bilimlarni bog'chalarni endigina tark etgan bolajonlarga o'rgatish, qalamni to'g'ri tutishga ko'nkitirish juda maroqli-ku! Men sababli kimdir savod chiqarsa, ana shu savodi umr bo'yini asqotsa – shu baxt emasmi?

ORZULAR QANOTIDA

Umida HAMROYEVA:

**ASEPTIKA, ANTISEPTIKA NIMALIGINI BILASIZMI?**

Men bilaman. Mening shifokor oyijonim tozalikka rivoja qilish kerakligini, mikrob nima ekanligini, uning inson hayotiga yetkazadigan zarari qandayligini uqtiradilar. Hozir pianino chalishga, suzishga qatnashaman. Kelajakda oyimdek shifokor bo'lmoqchiman.

Muniraxon TAVAKKALOVA:

DIZAYNER BO'LSAM

Bugun o'ta zamonaviy kasb – dizaynerlik rusm bo'lmoqda. Dizaynerlikning ham turlari bisyor: kiyim-kechak, uy-joy, inventarlar, ko'chalarining yangi ko'rinishini o'ylab topish ham maroqli. Masalan, xonada turgan oddiy jihozlarning o'rmini bir-biriga moslab chiroqli qilib qo'yish, kerakli joyga guldonda gullar, chiroqlar va rasmlar ilib, yangi ko'rinish hosil qilishga did kerak bo'ladi. Bunday go'zallikdan insonlar bahramand bo'lib, dili ravshan bo'lib yursin.

Umid XOLXOJIYEV:

OVOZIM BOR

Maktabimizda bo'ladigan bayramlarda men qo'shiq aytib ishtirok etaman. Shuning uchun ham 100dan ortiq qo'shiqlarni yodlaganman. Kelajakda estrada qo'shiqchisi bo'lmoqchiman. O'shanda jonli ravishda ma'nosi keng, sifatli qo'shiqlar kuylash orzuim bor.

Bir maktabdan qo'sh maktub

SOG'LIGIMIZ – BOYLIGIMIZ

Bolaligimda jigar kasalligi bilan og'rigandim. Shushu sog'ligim bezovta qilib turadigan bo'ldi. Oyijonim maktabda jismoniy tarbiya darslariga qatnashishimga ruxsat bermasdir. Dugonalarim oldida o'zimni noqulay his qila boshladim, nihoyat sport bilan jiddiy shug'ullanishga ahd qildim. Ertalabki badantarbiya mashqlarini bajarish barobarida uyimiz atrofini aylanib yugurishni kanda qilmadim. Kundan-kun o'zimda qandaydir kuch-quvvatni sezayotgandek edim. Jismoniy tarbiya o'qituvchimiz Dilfuza opa ham o'zlarining mehribonliklari, shirinso'zligi bilan menda sport olamiga katta qiziqish uyg'otdilar. Oradan biroz vaqt o'tib, voleybol, basketbol o'yinlarini bemalol o'ynay boshladim. Yaqinda 600 metrga yugurish mashqida sinfimiz bo'yicha birinchi o'rinni egalladim.

Aziz tengdoshlarim! Siz ham sport bilan mutazam ravishda shug'ullansangiz, hech shubhasiz sog'lom va kuchli bo'lasiz.

*Yodgora SODIQOVA,
Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi
98-maktabning 8-«G» sinfi o'quvchisi.*

CHIZMACHILIK QIYIN FANMI?

Yuqori sinflarga o'tganimiz sayin darslarimizga yangi fanlar qo'shila boshlaydi. Bu yildan «Odam va uning salomatligi», «Chizmachilik», «Iqtisod» kabi yangi fanlarni o'rgana boshladik. Ularning barchasi qiziqarli, ammo ayrim sinfdoshlarim chizmachilik qiyin ekan, deb nolishmoqda. Men esa chizishni yaxshi ko'raman. Ustozimiz: «Bu fan qiyin emas. Agar darslarni diqqat bilan tinglab, e'tibor bilan chizsangiz, hech qanday qiyinchilik sezmaysiz», deb o'quvchilarni qiziqtirishga harakat qiladilar. Men ham ustozimizning so'zlariga qo'shilaman. Aytaylik, sinfdoshlarim o'z uylarining chizmasini yoinki biron-bir o'lchamni ham belgilab chiza olmasalar, kelajakda ularga qiyin bo'ladi-ku! Siz nima deysiz?

Aziza AKBAROVA,

Yunusobod tumanidagi 98-maktabning 8-«G» sinfi o'quvchisi.

Obuna - 2007

Abduqodir NURBOYEV, Jizzax viloyati, Mirzacho'l tumanidagi 12-maktab direktori:

ENG QADRON GAZETAM...

-Maktabimizda 450 nafar o'quvchi 18ta sinfda tahlil olishadi. Ayni kunlarda maktabimizda obuna jarayoni qizg'in davom etyapti. Ayniqsa, «Tong yulduzi»ga obuna bo'lish istagidagi o'quvchilarimiz ko'philik. Bu gazetani o'zim ham juda yaxshi ko'rman, chunki u bolalikdagi qadronim. Shuning uchun ham o'quvchilarimga: «Butun sinf bo'yicha bir donagina gazetaga obuna bo'lsangiz, qay biringiz o'qiyisiz, qay biringiz o'qiy olmay qolishingiz mumkin. Ko'philik o'qigandan keyin yirtilishi bor, yo'qolishi bor. Uy manzilingizga obuna bo'lsangiz, gazeta har haftada uyingizga kelib turadi. Istagan vaqtindan uksingillaringiz bilan o'qishingiz, insho, bayonlar yozganiningizda maqola va xabarlaridan foydalanishingiz mumkin», deyman. Shundanmi, «Tong yulduzi»ga obuna bo'lganlar soni allaqachon 100 nafardan oshib ketdi.



Saydullo QORABOYEV, Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumanidagi Hamza nomli 38-maktabning rus tili fani o'qituvchisi:

«BIROZ CHO'CHIB TURIBMIZ...»



-O'tgan yili maktabimizdagi 34ta sinfning har biriga bir donadan «Tong yulduzi»ga obuna bo'lgandik. Lekin bir dona ham gazeta ololmadik. Gazeta so'rangan o'quvchilarimizga nima deb javob berishni bilolmay, garang bo'ldik. Shuning uchun bu yil gazeta va jurnallarga yozilishga, to'g'risi, biroz cho'chibroq turibmiz-da...

To'ra HOSHIMOV, Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 43-maktab direktori:

HAR HAFTA «ESHIK QOQAR...»


-Bilim maskanimizda tahlil olayotgan 350 nafar o'quvchidan 60 nafari aynan «Tong yulduzi»ga obuna

HAR O'N BOLAGA BITTADAN «TONG YULDUZI»!

Aziz bolajonlar, Respublika o'quvchilar saroyida ish boshlagan darsliklar va o'quv adabiyotlarining dastlabki ko'rgazmasi haqida sizga avval xabar bergan edik. Ko'rgazmada ko'plab shartnomalar imzolab, talaygina darslik ya qo'llanmalar xarid qilib, viloyat va tumanlariga qaytayotgan maktab direktorlari, kutubxonachilarining taassurotlari, fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashdik. Ko'rgazma xususidagi suhabatimiz o'z-o'zidan obunaga borib taqaldi va ular bizga quyidagilarni gapirib berishdi:

Gulnora ODILBEKOVA, 34-maktab kutubxonachisi:

-Boshlang'ich sinflardan iborat maktabimizda 450 nafar o'quvchi o'qidi. Ulardan 26 nafari 2007-yil uchun «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishdi. Biz rejani bajardik hisob. Lekin o'quvchilarimizning o'zlarini kelib, uy manzillariga obuna bo'lishayotgani meni juda quvontiryapti. Bilimli, ma'naviyatlari o'quvchilarimiz safi yana-da kengayadi-da, axir!



Gulchehra XO'JAKELDIYEVA, Viloyat ABDUSATTOROVA, 48-maktab kutubxonachilari:

-Bizning o'quvchilarimiz ham «Tong yulduzi»ning ashaddiy muxlislaridan. Buni har dushanba hali kutubxonani ochib ulgurmasimizdanoq, gazeta keldimi, deya so'roqlab kelishlaridan ham bilsa bo'ladi. 15 nafar obunachilarimiz 2007-yil uchun ham gazetaga yozilishdi. Ularga havas qilib, boshqa o'g'il-qizlar ham obuna bo'lishayotganidan xursandmiz.

Behzod YO'LDSHEV, 17-maktabning 7-sinf o'quvchisi:

-Kitoblarni juda yaxshi ko'rganim uchun ham oyimga ergashib ko'rgazmaga keldim, nashrdan yangi chiqqan kitoblar bilan tanishdim. Sotuvga qo'yilganlaridan bir nechtasini sotib oldim. «O'zbek Milliy ensiklopediyasi» tahririyatida bo'lim mudiri bo'lib ishlaydigan shoir Asror Mo'minovning she'riy to'plamiga o'zining dastxatini yozdirib ham oldim...

Shu tumandagi 40-maktab kutubxonachisi Shahnoza Mahkamova ham 1400 nafar o'quvchi tahlil olayotgan bilim maskanlarida «Tong yulduzi» obunachilarining soni 44tadan oshib ketganini aytdi.



Tumandagi 42-maktabda 10 yildan buyon kutubxonachi bo'lib ishlayotgan Saodat Nizomova ham ko'rgazma eng faol tomoshabinlaridan biri bo'ldi. Ko'rgazmaga kelgan yosh tomoshabinlar o'zlarini qiziqtirgan ko'plab savollariga opadan javob olishdi.

Kutubxonachilar-u maktab rahbarlarining kuyunchaklik bilan olib borayotgan ishlari, farzandlarimiz bilimi, ma'naviyatini yana-da boyitishga qo'shayotgan ozmi-ko'pmi hissalarini bizni quvontirdi, albatta.

Lekin, har bir maktab obunachilarining soni Xalq ta'limi bo'limi tomonidan belgilab berilishi biroz ranjiti-da.

Ular juda kam obunachilarini da'vat qilishyapti. Qani endi har o'n o'quvchiga bittadan «Tong yulduzi» degan talabni qat'iy qo'ysalar. Axir o'quvchi o'z gazetasini o'qisa, davlat siyosati, rahbarlar sa'y-harakati, tinchlikparvar g'oyasi bilan bola tilida samimiyl tillashsa, buning nimasi yomon? Shuning uchun kerak bo'lsa obunani har bir maktab imkon qadar tashkillashtirsa, «Tong yulduzi» o'quvchilarini soni bundan-da ortarmidi?! Chunki bolaparvar mamlakatimizda bunga imkon yetarli deb umid qilamiz.

bo'lishdi. Buning birinchi sababi, rangli tasvirdagi gazetangizning mazmun-mundarijasи, geografiyasi rang-barangligida bo'lsa, ikkinchi sababi, u bir oyda to'rt, hatto besh marotaba chiqadi. O'tgan yili «Sinfosh»ga obuna bo'lgan o'quvchilarimiz, jurnalni ololmayapmiz, deya nolib yurishgan bir paytda, «Tong yulduzi» o'z obunachilarini xursand qilib, har hafta «eshik qoqib» turdi.

Ko'rgazmaga Toshkent viloyati, Chinoz tumanida joylashgan 50ta maktab kutubxonachilarini ham kelishgan ekan. Ularni ham suhabatga tortdik:

Muqaddas SOBIROVA, 27-o'rta maktab kutubxonachisi:

BU YIL O'Z VAQTIDA KELARMIKAN?



-Avval «Turon» kutubxonasining filialida ishlardim. Bumaktaba kutubxonachi bo'lib ishga kelganimga ham bir yildan oshdi. Yangikelganimga o'quvchilarim obuna bo'lgan nashrlari o'z vaqtida kelmayotgani haqida nolib gapirishgandi. Mana, yil yakunlanib qolyapti hamki, o'quvchilarimiz obuna bo'lgan «Tong yulduzi» gazetasi hamda «Sinfosh» jurnalining birorta sonini ham ololmayaptilar. Kimning aybi bilan shunday hol ro'y berayotganini ham bilmaymiz. Shunday bo'lsa ham bu yil yana ushbu nashrlarga obuna bo'ldik. Maktabimizda 730 nafar o'quvchi tahlil oladi. Ulardan 22 nafari «Tong yulduzi»ga yozilishdi. Endi o'quvchilarimiz sevimli nashrlarini o'z vaqtida o'qishadi, deb umid qilaman.

BIZGA KO'MAKCHI NASHR

Xolida YO'LDSHEVA, 17-maktab kutubxonachisi:

-Men 9 yildan buyon shu maktabda ishlayman. Maktabimizda 500 nafar o'quvchi tahlil oladi. «Tong yulduzi» gazetasini o'zim shaxsan yaxshidi ko'rib o'qiyman. Undagi «Qulog'ingga gapim bor», «Kunlardan bir kun» kabi ruknlarini, respublika bolalari hayotiga oid maqolalarni avval o'zim qiziqib o'qib chiqaman. «Iqtisod saboqlari», fan olimpiadalariiga oid materiallarni o'qituvchilariga tavsiya qilaman. Ular ochiq darslarda, tadbirlerda ana shu manbalardan foydalanishadi. Hozirgacha obunachilarimiz soni 15dan oshdi. Lekin bu hali obuna yakunlandi, degani emas.



Suhbatlarni Feruza JALILOVA, Muharrama PIRMATOVA lar yozib olishdi.

Suratlar muallifi: Mirvosil ODILOV.

DIQQAT! DIQQAT! "IQTISODIYOT SABOQLARI" TANLOVI DAVOM ETADI

AZIZ O'QUVCHILAR!

Sizga ma'lum, ko'p yillardan buyon gazetamiz sahifalari orqali o'tkazilbel kelinayotgan «Iqtisodiyot saboqlari» sirtqi tanlovi 2005-2006-o'quv yillardan boshlab sirtqi olimpiadaga aylantirilgan edi.

Sirtqi olimpiadiada nafaqat iqtisodiyot, balki matematika, fizika va kimyo fanlaridan ham gazetamiz sahifalari orqali topshiriqlar berib borildi. Sirtqi olimpiadamiz natijalarini chiqarilib e'lon qilingan edi.

Fizika, matematika, kimyo, informatika, iqtisodiyot bilim asoslari fanlaridan o'tkazilgan sirtqi olimpiada g'oliblari:

Ism-familiyasi	Fan	Tumani	Maktabi	Sinfi
1. Yahyo Mo'minov	Kimyo	Andijon v., Shahrixon t.	53-gim.mak.	9
2. G'iyosiddin Bakirov	Kimyo	Andijon v., Shahrixon t.	53-gim.mak.	10
3. Negmurod Doniyorov	Fizika	Buxoro v., Jondor t.	20-mak.int.	10
4. Jamshidbek Isoqov	Matematika	Toshkent sh., S.Rahimov t.	165-mak.	9
5. Hamza Foziljonov	Matematika	Andijon v., Baloqchi t.	38-mak.int.	10
6. Hayotjon Kenjayev	Iqtisodiyot bilim asoslari	Buxoro v., Jondor t.	20-iqd.bola.int.	9
7. Nafisa Ochilova	Iqtisodiyot bilim asoslari	Buxoro v., Jondor t.	20-mak.int.	10
8. Sardor Qurbanov	Iqtisodiyot bilim asoslari	Samarqand v., Paxtachi t.	15-mak.	10

Sirtqi olimpiadamizda 8 nafar o'quvchi g'olib deb topilan. Biz ularning ro'yxatini takroran e'lon qilamiz.

Yuqorida nomlari atalgan o'quvchilar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi, Respublika Ta'lim Markazi «Faxriy yorliqlari», «Tong yulduzi» gazetasi «Maqtov yorliqlari» va homiy tashkilot – «DOSNEO» o'quv markazi tomonidan ta'sis etilgan: rangli televizor, DVD-pleyer, VCD-pleyer va boshqa qimmatbaho sovrinlar bilan taqdirlanildilar.

Mana shu o'quvchilar sirtqi olimpiada tashkilotchilarini bo'lmish O'zbekiston Xalq ta'lim vazirligi, Respublika ta'lim markazi tomonidan Respublika iqtidorli bolalari

yo'zgisi maktab-ormogohiga taklif qilingan va ularga bepul yo'llammalar taqdim qilingan edi. Ular maktab-ormogohna mazza qilib dam oldilar, respublikamizning eng ko'zga ko'rigan olimplari bilan hamsuhbat bo'ldilar, o'z tengdoshlari bilan o'zlarini sevgan fanlari bo'yicha musobaqalashdilar.

Bu yilgi yo'zgisi maktab-ormogoh Jizzax viloyati, Jizzax tumani, Rovot qishlog'i, «Paxtakor» yo'zgisi oromgohi bazasida tashkil qilindi.

Joriy yilning 2-12-avgust kunlari ushbu maktab-ormogoh Xalq ta'limi vazirligining 20-iyul 186-soni buyrug'iaga asosan faoliyat ko'rsatdi. Yo'zgisi maktabga fizika, matematika, kimyo, informatika va iqtisodiyot bilim asoslari fanlaridan yuqori natijalarga erishgan jami 122 nafar o'quvchi va 21 nafar professor o'qituvchilar qatnashdilar. Ular o'quvchilarga 10 kun davomida bir kunda 6 soatdan oshmagan holda umumiyo'rtta ta'lim maktablarini o'quv dasturidan tashqari Xalqaro fan olimpiadalariga xos bo'lgan nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan to'dirdigan holda saboq berdilar.

Matematika fanidan O'zbekiston Milliy universitetining professori R.G'anixo'jayev, mantiqiy va tarixiy masalalarni yechishga, Kombinator geometriya elementlari hamda chekli va cheksiz to'plamlar, vektorlar algebrasiga, T.Y.DPI kafedra mudiri fizika-matematika fanlari nomzodi M.Ismoilov funksiyalar xossalari tengsizliklarni isbotlashga qo'llash, 2006-yil Rossiya, Ukraina, AQSH olimpiadalarida qo'llanilgan masalalar va ularning yechimlarini tahliliga hamda olimpiada talablari asosida masalalarini yechishga, TDIU gimnaziyasi o'qituvchisi dotsent M.Mirzaahmedov eksperimental masalalarni yechish usullariga, O'zMU mexanika-matematika fakulteti o'qituvchisi dotsent M.Abduraimov matematik modellasshtirish qonunlari va prinsiplari, kimyo fanidan O'zMU kimyo fakulteti dotsenti X.Toshmuhammedov organik birikmalar tuzilishi va xossalari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar, TTKT dotsenti A.Siddiqov kolloid birikmalar kimyo fanining vazifalari, dispersa sistemalarining elektrogenetik xossalari, O'zMU kimyo fakulteti dotsenti A.Abdushukurov qo'shboq tutgan organik birikmalarining nomlanishi, murakkab tuzilishi aldegit va ionlarni nomlanishi, murakkab tuzilishi ega bo'lgan karbon kislotalarning nomlanishi, TTKT dotsenti A.Jalilov murakkab birikmalarida kimyo yobi'gan moddalarining agregat holatlari va sistemalari onorganik kimyonni ekologik chiqarishga yordam berish maqsadida tashkil etildi.

Bu yilgi yo'zgisi maktab-ormogoh «Iqtidori-2006» deb ataldi va u O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 25-martdag'i 157-soni O'zbekiston o'quvchi yoshlari taqdirlash va rag'battalnirish to'g'risida qarori asosida bizning sirtqi olimpiadamiz g'oliblari hamda Respublika va viloyat miyosida o'tkazilgan olimpiadalarida yuqori natijalarga erishgan 8-10-sinf o'quvchilariga uzlusiz bilim berish, Respublika va Xalqaro fan olimpiadalariga tayyorlash samaradorligini oshirish, shuningdek, ularning hordini chiqarishlarini ta'minlash, qobiliyatlarini ro'yoga sovrinlar bilan taqdirlanildilar.

Mana shu o'quvchilar sirtqi olimpiada tashkilotchilarini bo'lmish O'zbekiston Xalq ta'lim vazirligi, Respublika ta'lim markazi tomonidan Respublika iqtidorli bolalari

fanidan O'zMU mexanika-matematika fakulteti professori G.Nasreddinov asosiy iqtisodiy tushunchalar haqida matriksa vektor, vektorlarning skalyar ko'paytmasi, matriksalarning o'zaro ko'paytmasiga, TDIU iqtisodiyot kafedrasи o'qituvchisi dotsent D.Asqulova bozorda ayirboshlash va pul, iste'molchi va ishlab chiqaruvchilar, talab va taklif elastikligi, foizlar va bank zahira normasi xossalaringin qo'llanilishiga, I.I.O'zFA dotsenti N.Mardiyev iqtisodiy jarayonni modellasshtirish, iqtisodiy tanlov va uning muqobil qiyomatni bozor talabi va taklifi kabi muhim mavzularni yoritib, o'quvchilar bilan individual ishladilar hamda nazariy berilgan bilimlarni amaliy ishlar bajarish orqali mustahkamladilar. Yo'zgisi maktabda o'quvchilarni 10 kun davomida olgan bilimlarni hamda o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida har bir fandan yozma ishlar va yakunida esa kichik olimpiada o'tkazilib, natijalariga ko'ra o'quvchilarni fizika, matematika, kimyo, informatika fanlaridan o'tdagidan Xalqaro olimpiadalariga tayyorlov guruhiga tanlandi. Matematikadan O'tkir Boltayev, Rustam Jo'rayev, Hamroz Cho'yanov, Rustam Bosimov, fizika fani bo'yicha Buxoro viloyatidan Suxrob Beshimov, Ramazon Bozorov, Xorazm viloyatidan Yaxshimurod Qurbonov, informatikadan Xorazm viloyatidan Umid Sobirov, Namangan viloyatidan Shuhrat Farhodov, Buxoro viloyatidan Sherzod Otanafasov, Kurshid Mustafayev, Toshkent viloyatidan Shohruh Oripov, Lobar Xaymatova, Qashqadaryo viloyatidan Umid Ahmadjonov, Toshkent shahridan Begzod Azamatov, Mirkamol Mirobodov, kimyo fani bo'yicha Farg'on va viloyatidan To'iqin Ahmedov, Qarqadaryo viloyatidan Parpi Jo'rayev, Buxoro viloyatidan Nigora Ostonova, Ochil Qu'shayev, Ra'no Sulaymonova, Andijon viloyatidan Sherali Tillavoldiyev, Jalil Botirov, Toshkent shahridan Begzod Mutualovlar Xalqaro olimpiadalariga tayyorgarlik guruhiga tavsija etildi.

Bulardan tashqari, o'quvchilarning maroqli dam olishlarini ta'minlash maqsadida belgilangan kun tartibidagi tadbirlar uyushtirildi. Har bir viloyat vakillari tayyorlagan sahna ko'rinishlari, konsert nomerlari bilan ishtiroychilarini xushnud etdilar. Shu bilan birgalikda professor o'qituvchilar, viloyat vakillari, o'quvchilar bilan davra subbatlari tashkil etildi. O'quvchilarning ko'ngilli dam olishlarini ta'minlash maqsadida futbol, shaxmat, tennis bo'yicha professor o'qituvchilar, viloyat vakillari, o'quvchilar o'rtasida musobaqalar o'tkazildi va yakunida esa g'olib bo'lgan o'quvchilar aniqlandi. Fizika, matematika, kimyo, informatika va iqtisodiyot bilim asoslari fanlari bo'yicha qobilyati va iqtidori o'quvchilarga, yo'zgisi maktabda o'tkazilgan olimpiada natijalari bo'yicha birinchi o'rinni olgan ishtiroychilarga Respublika ta'lim markazining diplomi, stol lampasi, ikkinchi va uchinchi o'rinni olgan o'quvchilarga saat hamda homiy tashkilotlarning qimmatbaho esdalik sovg'alari topshirildi.

Bulardan tashqari, iqtisodiy bilim asoslari fanidan

AZIZ O'QUVCHILAR!

Biz quyida Respublika sirtqi olimpiadasining 2006-2007-o'quv yili uchun topshiriqlarini e'lon qilmoqdamiz. Topshiriqlar yana Iqtisodiy bilim asoslari, matematika, fizika va kimyo fanlari bo'yicha berilmoqda.

Sirtqi olimpiadamizning I bosqichi 15-yanvar kuni niyoyasiga yetadi. Ya'ni, shu kungacha siz bugungi taqdim qilinayotgan topshiriqlarni bajarib, yechim va javoblarni gazetamiz redaksiyasi manziliga jo'natishtingiz lozim bo'ladi.

Sirtqi olimpiadamizga eng to'g'ri javoblarni yo'ilgan va eng faol qatnashgan o'quvchilar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi, Respublika Ta'lim Markazi «Faxriy yorliqlari», «Tong yulduzi» gazetasi «Maqtov yorliqlari» va homiy tashkilot «DOSNEO» o'quv markazi tomonidan ta'sis etilgan quydagi sovrinlar bilan taqdirlanadilar: I o'r'in – televizor, II o'r'in – DVD-pleyer, III o'r'in – VCD-pleyer.

IQTISODIYOT

8-9-sinf

1. «Ekolondiya» davlatida umumi pul massasiga naqd va naqd bo'lmagan pullar topilgan. Biz ularning ro'yxatini takroran e'lon qilamiz.

Yuqorida nomlari atalgan o'quvchilar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi, Respublika Ta'lim Markazi «Faxriy yorliqlari», «Tong yulduzi» gazetasi «Maqtov yorliqlari» va homiy tashkilot – «DOSNEO» o'quv markazi tomonidan ta'sis etilgan: rangli televizor, DVD-pleyer, VCD-pleyer va boshqa qimmatbaho sovrinlar bilan taqdirlanildilar.

Mana shu o'quvchilar sirtqi olimpiada tashkilotchilarini bo'lmish O'zbekiston Xalq ta'lim vazirligi, Respublika ta'lim markazi tomonidan Respublika iqtidorli bolalari

topilgan. Biz ularning ro'yxatini takroran e'lon qilamiz.

Yuqorida nomlari atalgan o'quvchilar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi, Respublika Ta'lim Markazi «Faxriy yorliqlari», «Tong yulduzi» gazetasi «Maqtov yorliqlari» va homiy tashkilot – «DOSNEO» o'quv markazi tomonidan ta'sis etilgan: rangli televizor, DVD-pleyer, VCD-pleyer va boshqa qimmatbaho sovrinlar bilan taqdirlanildilar.

Mana shu o'quvchilar sirtqi olimpiada tashkilotchilarini bo'lmish O'zbekiston Xalq ta'lim vazirligi, Respublika ta'lim markazi tomonidan Respublika iqtidorli bolalari

topilgan. Biz ularning ro'yxatini takroran e'lon qilamiz.

Mana shu o'quvchilar sirtqi olimpiada tashkilotchilarini bo'lmish O'zbekiston Xalq ta'lim vazirligi, Respublika ta'lim markazi tomonidan Respublika iqtidorli bolalari

topilgan. Biz ularning ro'yxatini takroran e'lon qilamiz.

Mana shu o'quvchilar sirtqi olimpiada tashkilotchilarini bo'lmish O'zbekiston Xalq ta'lim vazirligi, Respublika ta'lim markazi tomonidan Respublika iqtidorli bolalari

topilgan. Biz ularning ro'yxatini takroran e'lon qilamiz.

Mana shu o'quvchilar sirtqi olimpiada tashkilotchilarini bo'lmish O'zbekiston Xalq ta'lim vazirligi, Respublika ta'lim markazi tomonidan Respublika iqtidorli bolalari

topilgan. Biz ularning ro'yxatini takroran e'lon qilamiz.

Mana shu o'quvchilar sirtqi olimpiada tashkilotchilarini bo'lmish O'zbekiston Xalq ta'lim vazirligi, Respublika ta'lim markazi tomonidan Respublika iqtidorli bolalari

topilgan. Biz ularning ro'yxatini takroran e'lon qilamiz.

Mana shu o'quvchilar sirtqi olimpiada tashkilotchilarini bo'lmish O'zbekiston Xalq ta'lim vazirligi, Respublika ta'lim markazi tomonidan Respublika iqtidorli bolalari


topilgan. Biz ularning ro'yxatini takroran e'lon qilamiz.

Mana shu o'quvchilar sirtqi olimpiada tashkilotchilarini bo'lmish O'zbekiston Xalq ta'lim vazirligi, Respublika ta'lim markazi tomonidan Respublika iqtidorli bolalari

topilgan. Biz ularning ro'yxatini takroran e'lon qilamiz.

FIZIKA

8-9-sinf



1. Av B nuqtalar orasidagi umumiyyat qarshilikni toping (1-rasm).

2. Idishda molar massalari μ_1 va μ_2 bo'lgan gazlar bor. Idishdagi temperatura T . Umumiyyat bosim P va gazlar aralashmasining zinchligi ρ bo'lsa, har bir gazning konsentratsiyasini toping.

3. Ikki tutash silindirk idishlarda simob joylashgan. Birinchi idishning yuza kesimi ikkinchisidan ikki marta katta. Keng idish og'ziga suv bilan to'lidirilgan. Tor idishdagi simob darajasi qancha balandlikka ko'tariladi? Dastlab simob darajasi keng idishning yuqori qismidan $I = 0,80 \mu$ masofada bo'lgan. $\rho_{\text{simob}} = 13600 \text{ kg/m}^3$.

4. 2-rasmida ko'rsatilgan sistemadagi bloklar vaznsiz va ip esa cho'zilmas bo'lsa ($m < M$), yuklarning tezlanishlarini toping.

5. Radiusi r va massasi m bo'lgan shargha uzunligi l bo'lgan ip yordamida vertikal devorga osib qo'yilgan. Sharchaning devorga ta'sir kuchini toping.

6. Nasos dvigateli 25 kWt qvvatga erishib 100 m^3 neftni 6 m balandlikka 8 daqiqada ko'taradi. Qurilmaning FIKNI toping. Neftning zinchligi $\rho_{\text{neft}} = 800 \text{ kg/m}^3$ deb oling.

10-II-sinf

1. Jism katta balandlikdan tushganda, uning harakatida qaror topgandagi tezligi $u = 60 \text{ m/s}$ ga yetadi. Jismning tushishi boshlangan vaqtidan tezligi $0,5u$ ga erishguncha vaqt t ni toping. Havoning qarshilik kuchi jism

БӨПЕМ

Бөпеме ызам келеді,
Бір жыласа, қонбайды.
Тек мамасын емеді,
Тамақ берсем жемейді.

Мен алтыға толғалы,
Берін жақсы дей берем.
Тамақ болса болғаны,
Тәттіні де жей берем.

ДОСЫМ ЕКЕУМІЗ

Шекісек те екеуміз,
Үйге жылап қайтпаймыз.
Сөзімізге бекембіз,
Анамызға айтпаймыз.

Естімесе өздері,
Айтып қаша қажеті?
Біліп қойса, біздерді
Ойнатпайды бір жеті.



Қадыр МЫРЗАЛИЕВ



Жұмбактар

Жаңылмастан жетеуі
Кезек қызмет етеді.
(Алтанаң жеті күні)



Қыстаға болады
Ұстасаң қолың тонады.
(Кар)

Көрсетеді,
Сөйлейді.
Өзі ешкімді көрмейді.
(Теледидар)

Кыл кенірдек батыр
Тау көтеріп жатыр.
(Көтергіш кран)

Төрде жатып шалқыған,
Дәу қарны қампиган.
(Жастық)

Көк ала костюм киеді,
Күннің көзін сүйеді.
(Карб)



БАЛА ТІЛІ – БАЛ


АЛМАПТЫ...

— Біз жоқта шкафтағы
конфет пен печенінен
бәрін тауыпсындар ғой,—
деді мамасы.

— Мен алған жоқпын,—
деді Марат.

— Мен алған жоқпын,—
деді Аскар.

— Мен де,— деді Майра.
— Сонда кім жеді оларды?
— Бәріміз бірге жедік...



«ДӘУ БҰЗАУ»

— Мынау не,
Аскар? — деп, сұра-
дым баламнан сиыр-
дың суретін көрсетіп.

— Дәу бұзау,—
деді ол.

— Неге дәу бұзау,
сиыр емес пе?

— «Л» ға тілім келмейді,— деп, Аскар шынын
айтты.

ЖАНҒАЛАҚ

Жанғалақ қазанда пісіріп жаткан сүтті көріп,
әжесіне жүгіріп келіпти.

— Эже, әже, қазандағы сұт
тулап жатыр!

— Тасып жатыр ма? Са-
пыра ғой.

— Не дедін, әже, сабайын
ба!?



Балтабай ӘДІЛОВ

СОТҚАР БӘТЕҢКЕ

Сатып алынған бір бәтенкенің мінезі екі түрлі боп шықты.
Әсіреле сол аяққа киетін бәтенкенің мінезі өзгеше. Он аяқтың
бәтенкесіне күн көрсеттейді. Жүрсе, нұқып қалады, тоқтаса,
соғып өтеді.

— Досым ау, айтшы, менің не жазығым бар? — мұнаяды ол.
— Бүйте берсен, жүрістен қалдырасын ғой.

— Қалсан, қала бер! — дейді сол аяқтың бәтенкесі. — Немене,
сенсіз жер басып жүре алмайды деймісін?

Он аяқтың бәтенкесі көпке шыдамады. Бір күні өкшесі
қақырап, аузы ырысып қалды.

Иесі екеуін екі жаққа лактырып жіберді. Сол аяқтың бәтенкесі
сынарымен бірге өзінің де құритынын ойламапты.

Нәсіреддин СЕРӘЛИЕВ

ШӘКЕННИҢ АҒАСЫ

Шәкеннің Бекен деген ағасы бар еді. Шешелері: «Бөліп жей
көйіндар», — деп екеуіне нан берсе, Бекен інісіне кілен күйігін
ұстасып:

— Күйігін сен же, ақылды боласын, — дейді екен.

Шәкен ағасына сенеді де, нан күйігін жеп қояды.

Бірде шешелері ет берсе, ағасы тағы да жіліктің етін сыйдырып
соғып алады да, інісіне:

— Мынаны мұжіп кой, ақылды боласын, — деп ку сүйекті ұстады.

Інісі бұған да сенеді.

Өстіп жүргенде, бір күні мектептен келген Бекенге шешесі:
«Қашан сенің ақылың кіреді, сабакты неге дұрыс оқымайсың?» —
деп ұрсады.

Естігенін Шәкен ішіне түйеді.

Кезі келіп, ағасы екеуі бір сары торламаны жарғалы ортага алады.
Тағы да Бекен інісіне:

— Мен жүзін жейін, сен қыртысын же, ақылды боласын, — дейді.

— Жоқ, аға... сен қыртысын же, сабакты жақсы оку үшін ақыл
керек, — дейді кеспелерді өз алдына тартып Шәкен.

Бұл жолы ағасына қауын қыртысы бұйырады.

Нәсіреддин СЕРӘЛИЕВ

ТӘРТІПСІЗ ЛАҚ

Кеш. Аулада терек саясында кітап оқып отырғанмын. Кенет
тарс-тұрс дыбыс шығып, басымды көтердім.
Қарасам, көршім-
кішкентай ак

Бір кезде жет-
Мүйізінен ұстап
леп жатыр.

Үйден әжесі

— Эй, Тәлтай!

Айқайға аландаі-
лактан айрылып
келген әжесінен
райады.

— Неге ұрасың ей, тәртіпсіз?!

— Лақ тәртіпті ме? Неге еккен ағашымды құлатады?

Қараймын, әлгінде ғана терезе алдына еккен өрімталы
қисайып жатыр. Оны көрген әжесі:

— Жә, екеуін де онып тұрған жоқсындар, — деп, қолын бір
сілтеп, жөніне кетті.

— Маған ұрсады, лаққа ұрыспайды, — деп, бұртандаған
Тәлтай құлаган талын тұрғызып жатыр.



Kuzning tarovatli kunderidan birida Xo'jaylidagi 1-«Mehribonlik uyi»da

haqiqiy bayram bo'ldi. Bolalarning sevimli ilm dargohiga Toshkentdan taniqli noshirlar, jurnalistlar tashrif buyurishdi. Ular «Homiyalar va shifokorlar yili» munosabati bilan bu yerda ta'lim olayotgan o'g'il-qizlarga sovg'a sifatida yangi chop etilgan kitoblar, gazeta va jurnallar, sport anjomlari olib kelishdi.

Shu munosabat bilan «Mehribonlik uyi»ning tantanalar zaliga o'g'il-qizlar, pedagog-tarbiyachilar yig'ilishdi. Bilim maskani direktori Svetlana Som tantanani ochib, tarbiyalanuvchilar nomidan bolalarga kitoblar va sport anjomlarini tortiq qilayotgan O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi hamda bir qator nashriyotlar jamoalariga cheksiz minnatdorchilik bildirdi.

Homiyalar nomidan so'z olgan «O'zbekiston» Nashriyot matbaa ijodiy uyi Bosh muharriri, O'zbekiston tonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Shomuhiddin Mansurov bolajonlarga «O'zbekiston», «O'qituvchi», G'afur G'ulom, Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uylari, «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, «Yangi asr avlodni», «Ma'naviyat» nashriyotlari tomonidan tortiq etilayotgan yangi



darsliklar va adabiyotlarni yaratayotgan noshirlar, nashriyotlar haqida qisqacha so'zlab berdi.

Bugun biz Sizlarga 2278 dona kitob, 129 dona gazeta va jurnallarni hadya qilmoqdamiz, - deydi Shomuhiddin Mansurov. – Bundan tashqari, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi sizning sog'ligingiz uchun muhim bo'lgan turli sport anjomlarini tortiq etmoqda. «Gulxan», «G'uncha», «Tong yulduzi», «Klass» singari sevimli

nashrlaringiz tahriri yati xodimlari ham gazeta va jurnallarining yangi sonlarini berib yubordilar. Bularning barchasi siz bolajonlarning «a'lo» baholarga o'qishingiz, sog'ligingizni mustahkamlashingizga xolis xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Bolalarga atalgan yangi darslik va adabiyotlar, sport anjomlarini «O'zbekiston» Nashriyot matbaa ijodiy uyi Bosh muharrir o'rinosi Jabbor Razzoqov, Qoraqalpog'ston Matbuot va axborot agentligi direktori Paraxat Palimov, «Bilim» nashriyoti direktori Perdebay Esbosinovlar ulashishdi. Bolalar noshir va jurnalistlar bilan qizg'in suhabat qilishdi. O'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi.

– Bolalar o'zlarini sevib mutolaa qilayotgan darsliklar-u va boshqa kitoblarini yaratayotgan insonlarni yaxshi bilishmasdi, - deydi tarbiyachi Gulzar Muzrikova. – Endi ular kitoblarning haqiqiy ijodkorlari, muharrir-noshirlari haqida to'la ma'lumotga ega bo'lishdi. Bunday uchrashuvlar bilim maskanimizda tez-tez o'tkazilib turilsa, juda yaxshi bo'lardi.

Uchrashuvdan so'ng «Mehribonlik uyi» bolalarining bir qismi hozirgina tortiq etilgan yangi kitoblarni avaylab quchoqlagancha o'qish xonalariga yo'l olishgan bo'lsa, qolganlari sport anjomlarini ko'taganicha sport zallari tomon oshiqishdi.

R.JABBOROV.

Suratlarda: Uchrashuvdan lavhalar.

TALABALAR HAM «TONG YULDUZI» O'QISHADI



«Tong yulduzi» Toshkent Kimyo texnologiya institutida!

Qulqqa hush yoqadi-a?

Talabalar o'z qadrondan gazetalar bilan uchrashishni, unda chiqayotgan materiallarni o'qishni orzulashsa qanday yaxshi!

Qiziqarli savol-javoblar bilan boshlangan ushbu tadbir haqiqiy she'riyat kechasiga aylanib ketdi. Oqibatda talabalarning o'zlarini ham bir zumda ijodkorga aylanib, bolalik xotiralariga berilishdi va gazetadan yod olgan she'rlardan o'qishdi. Bunga shoir Musallam Bonuning qalb bitiklari-yu Zarifa-xon Rashidovaning samimiyl dil izhorlari sabab bo'ldi. Shu kuni Institut ma'naviyat-ma'rifat bo'limi boshlig'i ham, uchrashuvda ishtirok etayotgan otaxon-u onaxonlar, ustozlar ham birdek bola bo'lib qolgandi. Bolalikka sayohat qanday yaxshi. Kuting, chorlang, qo'ng'iroq qiling, «Tong yulduzi»ngiz Sizning huzuringizga ham albatta boradi.

Jamila HAYDAROVA.

BIR KOSHONA SIRLARI



Eh, bolalar, bolalar, eshitmadim demanglar, eshitganlar esa bir kelib, bu koshona sirlaridan voqif bo'linglar.

Bu yerga bir kelgan odam

xuddi boshqa bir olamga tushib qolganday his qiladi.

-Men yog'och o'ymakorligi to'garagiga qatnashib, shu yilda «Tashabbus - 2006» ko'rik-tanlovida ishtirok etib, Respublika miqyosida 2-o'rinni egalladim. Bu ko'rik-tanlov menga yanayam kasbga bo'lgan mehrni, ishtiyoyqimni kuchaytirdi, desam hech mubolag'a bo'lmaydi, - deydi to'garak a'zosi Kamoliddin Rahimov.

Xonalarni aylanib yurganimizda, ko'zimiz beixtiyor boshlarini ko'tarmasdan qo'llariga mo'yqalam ushlab rasm chizayotgan bir talay o'quvchilarga tushdi. Ularni suhbatga chorladik:

-Men, Muborak Tursunqulova 196-o'rta maktabning 7-«G» sinfida o'qiymen. Yoshligimdan rasm chizishga qiziqaman. Markazimizda to'garak rahbarimiz Umida opa Muhammedovadan rassom-chilikning nozik sirlarini o'rgandim. Ustozimizdan juda minnatdorman.

-Tabiat go'zalligi, sayroq qushlar, rang-barang gullarning rasmini chizish jon-u dilim, - deydi to'garak a'zosi 24-maktabning 8-«D» sinf o'quvchisi

Shohista Xolmuhammedova.

Ijodiyot markazi direktori o'rinosi To'lqin aka To'xtaboyevdan so'raymiz:

Havas

oladi?

-Hozircha 960 nafar o'quvchi bor. Ular uchun 10ta to'garak ishlab turibdi. Ular uchun barcha sharoitlar yetarli.

Barcha to'garaklarda o'qitish bepul. Bunday imkoniyatlar bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'p bolali oilalar uchun juda qo'l kelmoqda. Shuning uchun bo'lsa kerak, bu maskanga keluvchilar soni kundan-kunga ortib bormoqda.


Binoning 2-qavatida to'garak ijod namunalarini o'zida jamlagan galereya bor. Binoning eng cho'qqisiga chiqish uchun esa «atigi» 150ta zinapoya bosib o'tiladi.

Binoning tepasi aylana shaklida bo'lib, unda 12ta bayroq hilpirab turibdi. Bu bayroqqa 12 viloyatning ramzi tushirilgan. Bir tomonda «O'zbek liboslari» galereyasi, o'ngda «Davlat sirkasi» binosi, chapda esa «Chorsu» bozorining gavjum manzarasi namoyon bo'ladi. Qisqasi, qaraganda shahar juda chiroyli, ko'rkan va afsonaviy bo'lib tuyuladi.

Qadrli tengdoshlar, aziz bolajonlar! Ming marta eshitgandan, bir marta ko'rgan afzal. Yaxshisi, bu sirli koshonani o'z ko'zingiz bilan ko'rsangiz, sirliligiga ishonasiz.

Manzura

UBAYDULLAYEVA.



Bekatda avtobus kutayotgan edim, oldimga qo'lida qo'pol yelim xalta ko'targan bir bolakay keldi. Yordamlashaymi, deb so'radim-da, javobini ham kutmay ko'tarib oldim.

-Isming nima, ukam?

-Ahmadjon.

-Bunda nima bor?

-Ikkita futbol to'pi.

-Nega bularni ko'tarib yuribsan?

-Bugun jismoniy tarbiya darsimiz bor. Uydan navbatma-navbat to'p olib kelamiz. Bugun menin galim edi. Agar ikkita to'p

olib borsak, hamma xohlagan o'yinini o'ynaydi. Bitta to'p bo'lib qolsa, faqat futbol o'ynashimizga to'g'ri keladi. Futbolni esa har doim ham o'ynagimiz kelavermaydi.

-Qiz bolalar-chi?

-Ular o'zlar uchun arqonlar olib kelishadi. Hech kim to'p olib kelmasa, birgalikda topishmoq aytish o'ynaymiz. Yoki hovlida yotgan yelim idishlarni to'p qilib tepib, futbol o'ynaymiz...

Ahmadjonning bu gaplarini eshitib, hayron bo'lib qoldim. Axir har yili mакtablar o'quv hamda sport anjomlari bilan ta'minlanadi-ku!

Uning iltimosiga ko'ra qaysi maktabda o'qishini yozmadim. Ishonamanki, bu maqoladan so'ng rahbarlar tegishli xulosa chiqarib oladilar.

Zilola POZILOVA,
O'zMU jurnalistika fakultetining I bosqich talabasi.

SIZDAN ILTIFOT, BIZDAN MUVAFFAQIYAT

308-mакtab Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan. Ushbu ta'lim maskanida o'quv, ta'lim-tarbiya jarayoni yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ammo ayrim maktablar qatori ushbu bilim dargohida ham sport zali bor bo'lsa-da, sport anjomlari yetarli emas. Buning ustiga yog'ingarchilik kunlarda tomidan chakka o'tadi. O'quvchilar qanday mashg'ulot o'tishar ekan-a? Bu holdan ajablanib, shu maktabning Dilshod ismli o'quvchisidan so'rasam, u: «Futbol o'ynayotganimizda chakka tomayotgan joyga chelak qo'yamiz va suvini navbatma-navbat to'kib, pollarni artib turamiz», dedi.

Qiziq, qachongacha bu hol davom etar ekan-a?

Marjona TURSUNOVA,
O'zMU jurnalistika fakultetining
I bosqich talabasi.

TAMARA MALAYZIYAGA BORADI

Ha, ha, ishonavering, Qoraqalpog'iston Respublikasining Xo'jayli tumanida joylashgan 1-«Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchisi, 7-sinf o'quvchisi Tamara Mirsayjanova yaqinda Malayziyaga yo'l oladi. Nima uchun, deysizmi? U yerda o'smir qizlar o'rtaida o'tadigan sportning sinxron suzish turi bo'yicha Osiyo championatida qatnashish uchun...

Tamara bunday baxtga osonlikcha musharraf bo'lgani yo'q. Murabbiysi Aysuluv Abayeva bilan birga muntazam qilgan mashqlari, mashaqqat va charchoqni yengib, o'z ustida tinimsiz ishslashlari niyoyat samarasini berdi.

Aslida ushbu maskanda sportsevar bolajonlar juda

Suratda siz ko'rib turgan tengdoshingiz Akrom Burxoniddinov Chilonzor tumani-dagi 126-maktabning 9-sinfida o'qidi. Kikboksing bo'yicha bir necha sovrinlar egasi. Keling, u bilan yaqinroq tanishib, kelgusi rejalar haqida bilib olaylik:
-Akrom, sportning bu turiga avvaldan qiziqarmi-



YURTIMIZ BAYROG'INI BALAND KO'TARSAM...

dingiz?

-Men 10 yoshga to'lganimda shahrimizdag 45-maktabda tashkil etilgan qo'l janggi to'garagiga qatnay boshlaganman. Keyinchalik bu sport turiga yana ham qiziqishim ortgach, oradan ikki yil o'tib, 14-maktabdag kikboksing to'garagiga borganman. Bu maktabda mena Davron aka Qodirov bu sport turini nozik tomonlarini o'rgatgandilar. 7 oydan so'ng birinchi marta Samarqand shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston championatida qatnashdim. Keyinchalik 2005-yilda Toshkent shahrida o'tkazilgan shahar kubogida 2-o'rin, shu yili 9-sentabrd o'tkazilgan Xalqaro turnirda 1-o'rin, 15-sentabrd bo'lib o'tgan shahar championatida 3-o'rin, 22-oktabrda Qozog'iston Respublikasining Chimkent shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro turnirda 1-hamda 2006-yil poytaxtimizda bo'lib o'tgan Jahon championatida 2 yo'naliш bo'yicha 2-o'rinni olishga sazovor bo'ldim. Meni bu darajaga yetishishimda Rixsivoy aka Ortiqov va Davron aka Qodirovlarning xizmatlari niyoyatda beqiyos. Ularning timsiz mehnatlari bois, sovrinli o'rnlarni qo'lga kiritib kelayapman. Shuningdek, ba'zida musobaqalar sabab darsdan qolib ketishimga to'g'ri keladi. Yangi o'tilgan darslarni ustozlarim men uchun alohida tushuntirib berishadi. Fursatdan foydalanib, ustozlarimga hamda menga imkoniyatlar yaratib berayotgan maktabimiz direktori Hidoyat Madaminovaga minnatdorchilik bildirmoqchiman. Kelajakdag maqsadlarim – taekvando bo'yicha jahon miqyosida champion bo'lib, chet davlatlarida yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarish.

Ozoda TURSUNBOYEVA.

ko'p. Sportning turli sohalarida yuqori ko'rsatkichlarga erishib, o'z uylari dovrug'ini respublikaga taratayotgan umidli sportchilar ham talaygina. Bunday yutuqlarning asl sababi esa bolajonlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarda, imkoniyatlarda.

Keling, Tamara haqidagi hikoyamizni shu yerda to'xtataylikda, unga omad tilab qolaylik. Chet elda o'tadigan nufuzli musobaqa natijalari, taassurotlari bilan esa u safardan qaytgach tanishaylik, o'rtoqlashaylik.

FERUZA tayyorladi.

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV

(O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri),
Dilbar ALIMJONOVA
(«Sog'gom avlod uchun» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi ijrochi direktori),

Qahramon QURANBOYEV
(«Kamolot» YOIH markazi kengashi raisi o'rnbosari),
Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMIU bosh muharrir o'rnbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV
(Andijon viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Dilshoda DADAJONOVA
(Namangan viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i),
Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rnbosari),
Sobirjon SHARIPOV

(Xorazm viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i),
Nurxon NAFASOV
(O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi),
Ergashvoy SARIQOV
(Iqtisod fanlari doktori).

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida

022-raqam bilan 2003-yil 11-dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq.

Adadi - 16864

Buyurtma N: J 3025

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin

SHOYODGOROV

Navbatchi:

Ozoda

TURSUNBOYEVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong1924@mail.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-38-10